# MAXSUS TAKLIF:
# “ASL “SER GO‘SHT” BURGERI UCHUN SERTIFIKAT.

2022-yil 20-oktabr

1. “ASL “SER GO‘SHT” burgeri uchun sertifikat” Maxsus taklifi “CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION” MChJ – «A-Pay» Elektron pul Tizimi Operatori tomonidan AksiyaHamkori – “SER GO‘SHT” OK SETAME MMM kafesi ko‘magida tashkil etiladi.
2. Maxsus taklif o‘tkaziladigan hudud: Buxoro shahri.
3. Amal qilish muddati: 2022-yil “31-oktabrdan” 2022-yil “2-noyabrgacha”. Sertifikatlar soni cheklangan.
4. Maxsus taklifdan faqat «A-Pay» Elektron pul Tizimida identifikatsiyadan o‘tganmijozlar foydalanishi mumkin.
5. Mijozlarni Maxsus taklif haqida xabardor qilish, tegishli ma’lumotlarni Tashkilotchining https://www.a-pay.uz veb-saytida va (yoki) «A-Pay» mobil ilovasida joylashtirish orqali amalga oshiriladi.
6. Maxsus taklif shartlari: identifikatsiyadan o‘tgan mijoz A-Pay Peshtaxtasida 10 000 APS evaziga “Asl “SER GO‘SHT” burgeriga Sertifikat olishi mumkin. “SER GO‘SHT” burgerining sertifikatini faollashtirish uchun maxsus taklif davomida “SER GO‘SHT” kafelaridan birida limonli qora choy xarid qilish kerak. “Asl “SER GO‘SHT” burgeriga sertifikat faqat Maxsus taklif muddati davomida Buxoro shahrida joylashgan “SER GO‘SHT” savdo tarmog‘ining quyidagi manzillarda joylashgan savdo nuqtalarida faollashtirilishi mumkin:
    - Buxoro shahri, 5-kichik nohiya, A. Somiy 9\1 (mo‘ljal: Avtoyo‘l kolleji ro‘parasi);
    - Buxoro shahri, Bahouddin Naqshband ko‘chasi, 180-uy (mo‘ljal: Ko‘k Saroy).

    Bitta Mijoz Maxsus taklifning amal qilish muddati davomida «A-Pay» Peshtaxtasidan 3 tadan ko‘p bo‘lmagan “Asl “SER GO‘SHT” burgeriga sertifikat olishi mumkin. Maxsus taklif muddati tugagandan so‘ng “SER GO‘SHT” burgeri uchun faollashtirilmagan sertifikatlar o‘z kuchini yo‘qotadi.
7. Tashkilotchiga Mijozni Maxsus taklif ishtirokchilari ro‘yxatidan chetlashtirilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan faktlar haqida ma’lum bo‘lgan taqdirda (“APS Bonus” Bonus dasturi Shartlariga rioya qilmaslik holatlari, «A-Pay» Elektron pul Tizimida aksiyalar o‘tkazish qoidalarini buzish, firibgarlik, g‘irromchilik, o‘zi haqida bila turib yolg‘on ma’lumotlarni taqdim etish va h.k.), bunday shaxslar Maxsus taklifdan foydalanish huquqidan mahrum etiladi.
8. Tashkilotchi o‘z xohishiga ko‘ra, bir tomonlama tartibda, istalgan vaqtda oldindan ogohlantirmasdan va sabablarini tushuntirmasdan, Maxsus taklifni muddatidan oldin bekor qilish yoki vaqtincha to‘xtatib turish, shuningdek, har qanday o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Maxsus taklifni muddatidan oldin bekor qilish, to‘xtatib turish, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish da’vo uchun asos bo‘la olmaydi.

9. Maxsus taklif muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda Tashkilotchi tegishli ma’lumotlarni o‘zining https://www.a-pay.uz manzilidagi rasmiy veb-sayti va (yoki) mobil ilovasida joylashtirish orqali ommani xabardor qilish majburiyatini oladi.
10. Tashkilotchi “Asl “SER GO‘SHT” burgeri uchun sertifikat” Maxsus taklifini noto‘g‘ri talqin qilish natijasida kelib chiqqan har qanday anglashilmovchilik, tushunmovchilik, da’vo yoki zarar uchun javobgar bo‘lmaydi.
11. Agar Maxsus taklifga doir biron-bir savol, tushunmovchilik yoki nizoli holatlar yuzaga kelsa, Mijoz Tashkilotchi bilan bog‘lanish orqali ularga aniqlik kiritish va hal qilish uchun barcha choralarni ko‘rishi shart.
12. Tashkilotchining majburiyatlarini bajarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan fors-major holatlar, shu jumladan suv toshqini, yong‘inlar, ish tashlashlar, zilzilalar, ommaviy epidemiyalar, davlat yoki huquqni muhofaza qilish organlarining buyruqlari va Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa obyektiv sabablar yoki boshqa tabiiy omillar yuzaga kelgan taqdirda Tashkilotchi Mijozlar oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod etiladi.
13. “Asl “SER GO‘SHT” burgeri Sertifikati” uchun Maxsus taklifda nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish fakti Mijozning o‘z shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlanishi va Tashkilotchidan elektron pochta (shaxsiy kabinet, telefon, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) orqali reklama va boshqa xabarlarni qabul qilishga roziligini bildiradi. Har bir Mijoz o‘zi bilan tushirilga fotosurati, video rolik, Tashkilotchi va uning o‘rtasida bo‘lgan intervyuni Tashkilotchining veb-saytida va (yoki) mobil ilovasida, reklama materiallarida, ijtimoiy tarmoq sahifalarida va hokazolarda joylashtirish va e’lon qilishga roziligini beradi. Tashkilotchi yuqorida qayd etilgan materiallardan cheklanmagan muddat davomida foydalanishi mumkin va Mijoz buning uchun hech qanday haq talab qilmaydi.